

# MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION METODLAR: ILK QADAM DASTURI, SINGAPUR METODI VA KIT THINGER DASTURINING UYG'UNLIGI

*Buranova Nazokat Aliyevna  
Qashqadaryo viloyati, Nishon tumani,  
20-DMTT direktori o'rinnbosari*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada “Ilk qadam” davlat dasturi, Singapur metodi va Kit Thinger dasturi integratsiyasi asosida maktabgacha ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish tajribasi yoritilgan. Singapur metodidagi Think-Pair-Share, Round Robin, Mix-Freeze-Group strategiyalari Kit Thinger dasturidagi savol-javob aylanmasi, tezkor javob, eslab qolish mashqlari bilan uyg‘unlashtirilgan holda bolalarning muloqot, tafakkur va xotirasini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lgani ko‘rsatib berilgan. Mahalliy va xorijiy olimlar (Karimova, Mirzayeva, Kagan, Spencer) fikrlari asosida metodlarning psixologik-pedagogik poydevori tahlil qilingan. Maqola yakunida metodist tajribasiga tayangan mashg‘ulot ishlanmasi ham keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Ilk qadam” dasturi, Singapur metodi, Kit Thinger dasturi, interfaol metodlar, maktabgacha yoshdagi bolalar, Think-Pair-Share, Round Robin, savol-javob aylanmasi, metodist tajribasi.

## Kirish

Maktabgacha ta’lim bolalar shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvining eng muhim bosqichidir. O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi aynan shu bosqichda bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularni kommunikativ, ijodiy, kognitiv va ijtimoiy kompetensiyalarga tayyorlashni asosiy maqsad sifatida belgilaydi. Dasturda rivojlantirish yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq va muloqot, bilish faoliyati, ijodiy yondashuv, jismoniy rivojlanish. Shu maqsadlarga erishishda innovatsion metodlar muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Singapur metodi va Kit Thinger dasturi maktabgacha ta’lim jarayonini interfaol, qiziqarli va samarali qiladi. Karimova bu haqda shunday deydi: “Davlat dasturi faqatgina nazariy yo‘riqnomalar emas, uni hayotga tatbiq etishda zamonaviy metodlar asosiy vositaga aylanadi. Shu bois interfaol yondashuvlarsiz maktabgacha ta’lim samarasini past bo‘ladi” [3].

Singapur metodi bolalarni kichik guruhda ishlashga, muloqot qilishga, faol bo‘lishga undasa, Kit Thinger dasturi esa bolalar tafakkurini faollashtiradigan, savol-javob va fikr almashishga yo‘naltirilgan metodlar majmuasidir. Ularni Ilk qadam dasturi bilan uyg‘unlashtirib qo‘llash yuqori natijalar beradi.

Singapur metodi amerikalik pedagog Spenser Kagan tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asosiy shiori: “Har bir bola faol ishtirok etadi, hech kim chetda qolmaydi.” Bu metodning asosiy falsafasi – kooperativ ta’lim, ya’ni har bir bolaning guruhdagi faoliyatini rag‘batlantirishdir. S.Kagan yozadi: “Kooperativ metodlar orqali bola o‘z bilimini nafaqat o‘qituvchidan, balki o‘z tengdoshlaridan ham o‘rganadi, shu bilan bilim yanada mustahkamlanadi” [2].

Kit Thinger dasturi esa mактабгача va boshlang‘ich ta’limga mo‘ljallangan interfaol o‘qitish texnologiyasi bo‘lib, unda savol-javob aylanmasi, tezkor fikr almashish, xotira va diqqatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar mujassam. Bu dastur bolalarni qisqa vaqt ichida: tez fikrlashga, javobni qisqa va aniq ifodalashga, guruhdagi o‘rtoqlari bilan muloqotga kirishishga, diqqat va eslab qolish qobiliyatini rivojlantirishga o‘rgatadi. Tadqiqotchi R.Sodiqova (2021) bu haqda shunday yozadi: “Kit Thinger dasturi bolaning fikrlash va nutq faoliyatini uyg‘otadigan maxsus o‘yin va strategiyalarga asoslangan bo‘lib, ayniqsa mактабгача yoshda juda samarali natija beradi” [5].

“Ilk qadam” dasturida nazarda tutilgan rivojlantiruvchi faoliyatlar – ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq va muloqot, bilish faoliyati, ijodkorlik – aynan shu ikki metod orqali samarali amalga oshiriladi.

Metodist amaliyotida Singapur metodining Think-Pair-Share, Round Robin, Mix-Freeze-Group strategiyalari Kit Thinger dasturidagi Savol-javob aylanmasi, Tezkor javob, Esda saqlash o‘yini bilan birgalikda quyidagicha qo‘llanildi:

1) “Ranglarni o‘rganamiz” mashg‘ulotida:

- Think-Pair-Share – bolalar avval mustaqil ranglarni kuzatadi, sherigi bilan muhokama qiladi, so‘ngra umumiy javob beradi.
- Kit Thinger savol aylanmasi – “Bu rang qaysi narsalarda bor?”, “Tabiatda yashil rangni qayerda ko‘ramiz?” kabi tezkor savollar orqali bolalar tafakkuri faollashtiriladi.

2) “Shakllar va predmetlar” mashg‘ulotida:

- Round Robin – guruhdagi bolalar navbat bilan shakllarni aytadi.
- Tezkor fikr almashish (Kit Thinger) – bolalarga 30 soniya ichida “doira shaklidagi 3 ta narsa”ni aytish vazifasi beriladi.

3) “Hayvonlar olami” mavzusida:

- Mix-Freeze-Group – musiqa ostida harakatlanib, musiqa to‘xtaganda “kim qushlar guruhiga qo‘shiladi?”, “kim dengiz hayvonlarini tanlaydi?” kabi topshiriqlar bajariladi.
- Eslash va topish (Kit Thinger) – 5 ta hayvon rasmi ko‘rsatiladi va keyin bolalar eslab qolganlarini sanab berishadi.

Metodist kuzatuvida: “Singapur va Kit Thinger metodlarini birgalikda qo‘llaganimda bolalar o‘yinli vaziyatda ham bilim olishdi, ham diqqat va xotirasi rivojlandi, mashg‘ulotlar esa jonli va qiziqarli kechdi.”



Ilk qadam dasturida nazarda tutilgan kompetensiyalarni rivojlantirishda Singapur va Kit Thinger metodlarining qo'shma afzalliklari: ijtimoiylashuv va hamkorlik kuchayadi – bolalar guruhda ishlashni o'rghanadi, bir-biriga yordam beradi; nutq va tafakkur rivojlanadi – tezkor savollar va javoblar bolaning muloqot madaniyatini oshiradi; ijodkorlik ortadi – bola o'yin orqali yangi g'oyalar taklif qiladi; diqqat va eslab qolish kuchayadi – Kit Thinger dasturidagi tezkor mashqlar bolalar xotirasini faollashtiradi; motivatsiya oshadi – mashg'ulotlar qiziqarli va interfaol tarzda o'tadi.

M.Spenser bu borada shunday yozadi: "Bolaga nafaqat ma'lumotni yetkazish, balki uni faol ishtirokchi qilish ta'limning asosiy vazifasidir. Interfaol metodlar aynan shu maqsadni amalga oshiradi" [6].

#### Xulosa va tavsiyalar

"Ilk qadam" davlat dasturi, Singapur metodi va Kit Thinger dasturi integratsiyasi maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida quyidagi natijalarni beradi:

- Dasturdagi ijtimoiy-hissiy, kognitiv, nutq va ijodiy rivojlanish bloklari to‘liq amalga oshadi.
- Mashg‘ulotlar qiziqarli, mazmunli va samarali o‘tadi.
- Bolalarda faollik, mustaqil fikrlash va muloqot madaniyati shakllanadi.
- Har bir bola bilim olish jarayonida o‘zini muvaffaqiyatli his qiladi.

Metodistlar uchun tavsiya: Singapur va Kit Thinger metodlarini “Ilk qadam” dasturi mavzulari bilan uyg‘unlashtirib qo‘llash, ushbu metodlarni o‘rgatish bo‘yicha seminar-treninglar tashkil etish lozim. Karimova yakuniy xulosasida ta’kidlaydi: “Davlat dasturidagi maqsadlar innovatsion metodlar bilan uyg‘unlashganda, bolalar rivoji tabiiy, qiziqarli va samarali kechadi” [3].

### **“ILK QADAM” DASTURI ASOSIDA SINGAPUR VA KIT THINGER METODLARI BILAN UYG‘UNLASHGAN MASHG‘ULOT ISHLANMASI**

**Mavzu:** Ranglarni o‘rganamiz

**Yosh guruhi:** 5–6 yoshli bolalar

**Mashg‘ulot turi:** Rivojlantiruvchi, interfaol mashg‘ulot

**Metodlar:** *Singapur metodi (Think-Pair-Share, Round Robin)* va *Kit Thinger (Savol-javob aylanmasi, Tezkor javob)*

#### **Davlat dasturidagi rivojlantirish sohasi:**

**Bilish faoliyati:** Ranglarni idrok qilish, solishtirish va nomlash.

**Nutq va muloqot:** Ranglarni tasvirlash, suhbatlashish.

**Ijtimoiy-hissiy rivojlanish:** Hamkorlikda ishslash, bir-birini tinglash.

**Mashg‘ulot maqsadlari**

**Ta’limiy maqsad:** Bolalarga asosiy ranglarni tanitish, ularni predmetlar bilan bog‘lab aytishni o‘rgatish.

**Tarbiyaviy maqsad:** Guruhda ishslash, bir-birini tinglash, hurmat qilishni shakllantirish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** Diqqatni jamlash, tez fikrlash, nutqni rivojlantirish.

**Jihozlar va ko‘rgazmalar:**

- ✓ Rangli kartochkalar (qizil, sariq, yashil, ko‘k)
- ✓ Rangli predmetlar (o‘yinchoqlar, meva-mashq maketlari)
- ✓ Interfaol taxta yoki slaydlar
- ✓ Musiqa yozuvi

**Mashg‘ulotning borishi**

#### **Kirish qismi (5 daqiqa)**

Bolalar bilan doira bo‘lib salomlashish.

“Rangli qo‘lchalar” nomli qisqa musiqali o‘yin: har bola o‘zida bor rangli qo‘lchani ko‘rsatadi.

Metod: **Mix-Freeze-Group (Singapur metodi)**

Musiqa chalinar ekan bolalar xonada harakatlanadi, musiqa to‘xtaganda tarbiyachi: “*Kimda qizil rangdagi buyum bor, bir guruhga to‘plang!*” – deydi. Shu orqali bolalar rang bo‘yicha guruhlanadi.

### **Asosiy qism (15 daqiqa)**

#### **1-bosqich – Think-Pair-Share (Singapur)**

Tarbiyachi yashil rangdagi kartochkani ko‘rsatadi.

Bola avval *mustaqil* fikr yuritadi (“Bu rang qaerda bor?”), keyin *jufti bilan* muhokama qiladi, oxirida butun guruh bilan o‘z fikrini o‘rtoqlashadi.

#### **2-bosqich – Savol-javob aylanmasi (Kit Thinger)**

Tarbiyachi savol beradi: “*Qaysi mevalar sariq?*”, “*O‘yingohda qaysi narsalar qizil?*”

Har bola 10 soniya ichida javob beradi.

#### **3-bosqich – Round Robin (Singapur)**

Guruh bo‘lib navbat bilan javob berish: “*Men qizil rangni ... da ko‘raman*” (olma, bayroq, gullar).

#### **4-bosqich – Tezkor javob (Kit Thinger)**

30 soniya ichida *ko‘k rangdagi 3 ta predmetni* aytish.

#### **Yakuniy qism (5 daqiqa)**

**Eslash va topish (Kit Thinger):** 5 ta predmet ko‘rsatiladi, keyin ularni yashirib qo‘yib bolalardan qaysi rangdagi buyumlar esida qolganini so‘rash.

Mashg‘ulot bo‘yicha qisqa suhbat: “*Bugun qaysi ranglarni o‘rgandik?*”, “*Qaysi rang senga yoqdi?*”

Rag‘batlantirish: “*Bugungi rangli do ‘stlar*” yorlig‘ini berish.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Ilk qadam. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun davlat o‘quv dasturi. – Toshkent: MTT Vazirligi nashriyoti, 2019.
2. Kagan S. Cooperative Learning: Strategies for Elementary Classrooms. – California: Kagan Publishing, 2001.
3. Karimova N. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda interfaol metodlardan foydalanish. – Toshkent: Fan, 2019.
4. Kattabekova M. Interfaol metodlar orqali bolalar kompetensiyasini rivojlantirish. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2022.
5. Mirzayeva S. Maktabgacha ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Istiqlol nashriyoti, 2020.
6. Sodiqova R. Bolalar psixologiyasi va interfaol o‘yin metodlari. – Samarqand: Ziyo nashriyoti, 2021.
7. Spenser M. Innovative Learning Techniques for Early Childhood Education. – London: Routledge, 2015.